XALQ DEPUTATLARI UCHQUDUQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 1-avgust VI-89-84-5-76-K/24 Uchquduq tumani

Uchquduq tumanining ma‘muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli “Yo‘l xaritasi”ning 3- va 4-bandlari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Uchquduq tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyaning Uchquduq tumanining Qozog‘iston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro viloyati, Konimex va Tomdi tumanlari bilan ma‘muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risidagi yig‘ilish bayonnomasi ma’qullansin.

2. Uchquduq tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiya tomonidan taqdim etilgan:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborish uchun Navoiy viloyatining Qozog‘iston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro viloyati, Konimex va Tomdi tumanlari bilan ma’muriy-hududiy birliklar chegarasining tavsifi 1-ilovaga va kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Abdikarimov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



SATTOROV SHUXRAT ISMATOVICH

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 1-avgustdagi
VI-89-84-5-76-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyati Uchquduq tumanining chegara
TAVSIFI

Qozog‘iston Respublikasi, Uchquduq va Tomdi tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy 1-nuqta deb qabul qilindi. (WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 43°35’33,498”, sharqiy uzoqlik koordinatalari 64°35’09,486”).

A dan B gacha Tomdi tumani yerlari bilan 1-13- nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali Qozog‘iston Respublikasi, Tomdi va Uchquduq tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joydan janubiy yo‘nalishda 75434 metr masofani o‘tib, 2-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 42°55’06,211”, sharqiy uzoqlik 64°41’37,762”)

2-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 34200 metr masofani o‘tib, 3-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 42°56’22,080”, sharqiy uzoqlik 64°16’33,3882”)

3-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 95723 metr masofani o‘tib, 4-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 42°05’02,951”, sharqiy uzoqlik 64°24’58,700”)

4-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 40389 metr masofani o‘tib, 5-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 42°04’17,287”, sharqiy uzoqlik 63°55’47,023”)

5-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 30300 metr masofani o‘tib, 6-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°48’43,649”, sharqiy uzoqlik 64°02’34,651”)

6-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 7300 metr masofada A379 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 9287 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 9245 metr masofani o‘tib, 7-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°49’01,670”, sharqiy uzoqlik 63°43’55,784”)

7-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda12623 metr masofani o‘tib, 8-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°43’02,460”, sharqiy uzoqlik 63°40’05,886”)

8-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 14306 metr masofani o‘tib, 9-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°45’34,286”, sharqiy uzoqlik 63°30’30,256”)

9-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 38500 metr masofani o‘tib, 10-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°24’46,591”, sharqiy uzoqlik 63°30’59,802”)

10-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4300 metr masofani o‘tib, 11-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°23’35,475”, sharqiy uzoqlik 63°28’20,592”)

11-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 18700 metr masofani o‘tib, 12-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°16’54,684”, sharqiy uzoqlik 63°38’23,929”)

12-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishda 5203 metr masofani o‘tib, Uchquduq va Konimex tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joydagi 13-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°17’27,784”, sharqiy uzoqlik 63°42’03,183”)

B dan D gacha Konimex tumani yerlari bilan 13-17-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

13-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 14306 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°09’47,579”, sharqiy uzoqlik 63°43’18,538”)

14-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘li bo‘ylab janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 10516 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°09’56,664”, sharqiy uzoqlik 63°36’00,369”)

15-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 6685 metr masofani o‘tib, 16-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°08’05,385”, sharqiy uzoqlik 63°31’54,321”)

16-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan chegara quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 24130 metr masofani o‘tib, Buxoro viloyati va Konimex tumani chegara chiziqlari kesishgan joydagi 17-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 40°55’48,926”, sharqiy uzoqlik 63°26’15,497”)

D dan E gacha Buxoro viloyati yerlari bilan 17–20–nuqtalar oralig‘ida chegaralari tavsifi quyidagicha:

17-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 673 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 33167 metr masofani o‘tib, 18-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°02’51,527”, sharqiy uzoqlik 62° 57’ 16,942”).

18-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 59299 metr masofani o‘tib, 19-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°29’16,755”, sharqiy uzoqlik 62° 34’ 30,582”).

19-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 36649 metr masofani o‘tib, Navoiy viloyati Uchquduq tumani, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi chegara chiziqlari kesishgan joyda joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°24’22,202”, sharqiy uzoqlik 62°09’01,233”).

E dan F gacha Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlari bilan 20–27–nuqtalar oralig‘ida chegaralari tavsifi quyidagicha:

20-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 66920 metr masofani o‘tib 21-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°53’38,249”, sharqiy uzoqlik 61° 40’ 45,305”).

21-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 29345 metr masofani o‘tib 22 –nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 41°59’35,705”, sharqiy uzoqlik 62°0’14,004”).

22-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 29600 metr masofani o‘tib 23-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 42°14’12,720”, sharqiy uzoqlik 61° 51’ 45,580”).

23-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 37244 metr masofani o‘tib 24-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 42° 33’ 46,652”, sharqiy uzoqlik 61° 54’ 55,718”).

24-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 77455 metr masofani o‘tib 25 - nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 43°09’16,037”, sharqiy uzoqlik 62°25’01,420”).

25- nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 12440 metr masofani o‘tib 26 - nuqtaga tutashadi.(shimoliy kenglik 43° 14’ 56,763”, sharqiy uzoqlik 62° 29’ 55,822”).

26- nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 21421 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 31891 metr masofani o‘tib, Qozog‘iston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Navoiy viloyati chegara chiziqlari tutashgan joyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. (shimoliy kenglik 43°31’10,234”, sharqiy uzoqlik 61°59’20,689”).


F dan A gacha Qozog‘iston Respublikasi yerlari bilan 27–1-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

27-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. (shimoliy kenglik 43°35’33,498”, sharqiy uzoqlik 64°35’09,486”)

Xalq deputatlari Uchquduq tumani
Kengashining
2024-yil 1-avgustdagi
VI-89-84-5-76-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Uchquduq tumanining chegara

CHIZMASI



Shartli belgilar

Uchquduqi tumanining chegarasi va yer maydoni

1 *Uchquduqi tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami*